

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish yo'llari

*X.Xo'jamov,
Qashqadaryo VXTXQTMOI*

Mamlakatimizda ta'limning rivojlantirish istiqbolini belgilab beruvchi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz ta'lim tizimi oldiga inntellektual, ma'naviy hamda jismonan sog'lom avlodni shakllantirish fazifasini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: «Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning doimo tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi» (Karimov I.A. O'zbekistoning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston. 1992. 78-bet).

Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta'lim mazmunida o'z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarning o'qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida asrlar davomida insoniyat tomonidan asoslangan ilmiy bilimlardan yosh avlodni xabardor etish maqsadida tizimli, izchil, uzluksiz va, albatta, maqsadga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib boriladi.

Xuddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturda ko'zlagan maqsadlarga erishishi ta'lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va, avvalo, o'qituvchiga ham bog'liqdir. O'z davrining ruhini chuqur anglagan, kelajakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga

subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunning pedagogi maktabda bir-biridan zerikarli an'anaviy darslarni olib boruvchi oddiy o'qituvchi bo'lib qolmasligi kerak. Chunki shiddat bilan o'zgarib, rivojlanib borayotgan bugungi zamonning o'quvchisi axborot uzatishning eng mukammal va samarali usul va vositalarini tanlamoqda. Bugun Internet kabi axborot uzatishning eng mukammal va qiziqarli vositalari ishlab turgan bir paytda ular uchun quruq ma'ruzalardan iborat bo'lgan oddiy va an'anaviy darslar o'ta zerikarli tuyulmoqda. Bugun maktabda tashkil etiladigan har bir dars mashg'uloti o'zida o'qitishning faollashtiruvchi unsurlarini qamrab olgan interfaol metodlar asosida tashkil etilmog'i lozim.

Shu ma'noda umumta'lim maktablarining Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani o'qituvchilari uchun quyidagi interfaol dars metodlaridan birini tavsiya etamiz.

Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari 8-sinf

Mavzu: Yurt tinchligi

Darsning maqsadi:

A) ta'limiy maqsadi: o'quvchilar dars jarayonida quyidagilarni bilib oladilar:

- insonning eng ustuvor huquqlaridan biri –bu tinch yashash huquqi ekanligi;
- tinchlikni ta'minlash-davlat va jamiyat rivojining eng muhim sharti ekanligi;
- yurt tinchligi –barqaror taraqqiyot garovi ekanligi;

B) tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni mustaqil ona Vatanimizga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda milliy iftihorni shakllantirish;

V) rivojlantiruvchi maqsadi: o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirish, mavzuni o'zlashtirish jarayonida olgan bilimlarini mustaqil hayotga qo'llay bilish ko'nikmalarini shakllantirish;

G) kasbga yo'naltiruvchi maqsadi: muayyan kasb-korlar haqida ma'lumot berish va o'quvchilar qalbida ularga nisbatan qiziqish uyg'otish, asosiy g'oyalarni singdirish orqali o'quvchilar ongi va qalbida g'oyaviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Darsning turi: noan'anaviy

Darsning metodi: «Kichik ma'ruza», «Muammolar galereyasi».

Darsning jihozi: dunyo xaritasi, o'zbekiston xaritasi, ko'rgazmali vositalar, tarqatmali materiallar, rasmlar galereyasi.

Darsning vositalari: fepchart qog'ozlar, turli rangli markerlar, qog'ozli skotch, yelim, masofadan turib ko'rsatishga mo'ljallangan lazerli ko'rsatkich.

Darsning manbalari: 8-sinf Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari darsligi.

Vaqt budjeti taqsimoti

№	Ishning mazmuni	Vaqt
1	Tashkiliy daqiqa	2
2	Yangi mavzuni boshlashga tayyorgarlik ko'rish	3
3	Kichik ma'ruza	15
	«Muammolar galereyasi» metodida ishlash	20
4	Mavzuni xulosalash, o'quvchilarni baholash.	5

Darsning borishi.

Navbatchining sinf o'quvchilarining davomati haqidagi axborotini tinglash, sinfxonasining gigiyenik holtini nazorat qilish.

Yashirin raqamli kartochoyklarni tarqatish orqali sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib olinadi. (Har bir guruhga o'rtacha besh yoki oltita o'quvchi ishtirok etishi kerak, aks holda guruhlarda ishlash ancha og'irlashadi. Guruhlardan ortib qolgan o'quvchilar ekspert guruh sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Ular bir vaqtning o'zida

ham mavzuni o'zlashtiradilar, ham guruhlarning ishlarini baholashda ishtirok etadi). Har bir guruhga alohida nom beriladi.

Yangi mavzuning bayoni:

aziz o'quvchilar, siz yaxshi bilasizki, har bir xalq o'z tarixi, bugungi va kelajak hayotini o'zi yaratadi. Shuning uchun ham dunyodagi har bir xalqni bunyodkor kuch deb aytamiz. Siz bilan biz yashab turgan bu dunyo bunyodkorlik tufayli farovondir. Agar shunday tushuncha va uning asosida shakllangan qadriyat va an'analar bo'lmasa, o'zingiz tasavvur qiling, bu olam qanday harob ahvolga tushib qolishi mumkin edi: faqat buzg'unchilik, shahar va qishloqlar qurish, bog'-rog'lar yaratish, yerdan ne'mat undirish o'rniga ularni talash va vayron qilishdek, vahshiy hissiyotlar avj olib, insonning bu dunyoda erkin yashashi, oila qurib, bola orttirishi, ezgu orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun mutloqo imkon bo'lmagan bo'lardi. Bunday hayotni esa dunyodagi hech bir xalq istamaydi.

O'ylab ko'rganmisiz, dunyo, avvalo, kimni tan oladi? Bu savolga Prezidentimiz Islom Karimovning mana bu so'zlari javob bo'ladi:

«O'z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o'zini o'zi boqadigan, o'zini himoya qilishga, kelajagini o'z qo'li bilan qurishga qodir bo'lgan xalqni jahon ahli e'tirof etadi».

Quyidagi so'zlarni hech qachon esingizdan chiqarmang!

Huquqiy demokratik davlat qonunlarga tayangan holda rivojlanadigan, xalqning xohish – irodasi asosiy o'rin tutadigan davlat deganidir. Fuqarolik jamiyati esa, davlat boshqaruvida fuqarolar va ular tomonidan tuzilgan fuqarolik tashkilotlari faol ishtirok etadigan, hal qiluvchi o'rin tutadigan jamiyatdir.

Dunyodagi har qaysi xalq va millat moddiy va ma'naviy bunyodkorlik salohiyatiga ega. Moddiy va ma'naviy hayot uzviy bog'liq bo'lgani kabi inson, xalq hamda jamiyatdagi moddiy va ma'naviy bunyodkorlik salohiyati ham o'zaro bog'liqdir.

«Muammolar galereyasi» metodida ishlash uchun o'quvchilarni sanoq sonlarini sanash orqali to'rtta guruhga bo'lib olinadi. Har bir guruhga mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holatda nom beriladi.

Har bir guruh uchun alohida flepchart qog'oz tarqatiladi, markerlar beriladi. Guruh a'zolari o'rganilgan mavzular yuzasidan mavzuning mazmunini ochib beradigan muammoli savollat tuzib, o'zlarinig flepchart qog'ozlariga yopishtiradilar. Buning uchun o'quvchilarning har biriga bir yoki bir nechta maxsus yopishadigan (Sennik) qog'ozchalar bo'lishi kerak.

Belgilangan vaqt ichida guruhlar o'z ishlarini yakunlaydilar va sinf doskasida muammolardan iborat galereya paydo bo'ladi. Guruhlarning ishlari doskaga yoki boshqa ko'rinarli joylarga osib qo'yiladi.

Navbatdagi bosqichda guruhlar o'zlariga raqib tomon tayyorlagan muammolardan o'zlariga ma'qul bo'lganini olib unga javob yozadilar va shu savolning yoniga yopishtirib qo'yadilar. Shu tariqa barcha savollarga javoblar topiladi.

Navbatdagi bosqichda o'qituvchi va o'quvchilardan iborat ekspertlar guruhi muammoli savollarga berilgan javoblarning qay darajada to'g'riligini tekshirib chiqadilar va guruhlar ishishi baholaydilar.

Guruhlarni ishlash jarayonini kuzatib va kerakli metodik yordam berish maqsadida guruhlar oralab yurgan o'qituvchi o'quvchilarning qaysi birlari qay darajada faol ishlayotganliklariga qarab oldindan tayyorlab qo'yilgan baho ko'rsatkichlari kartochkalarini berib boradilar.

O'qituvchi mavzuni xulosalash jarayonida bir vaqtning o'zida o'quvchilarning olgan baholarini ularga tarqatilgan kartochkalarga qarab kundalik daftarlari va jurnallariga qo'yib beradilar.